O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI
BUYRUG‘I

2 oktabr 2025 yil. **864-son** Toshkent sh.

Toshkent davlat tibbiyot universitetida tahsil olayotgan ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularni ro‘yxatini qayta tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi “Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 739-son qarori (keyingi o‘rinlarda – Qaror), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2020-yil 25-noyabrdagi 607-son buyrug‘i, Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o‘rinlarda – Universitet) Ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan talabalar murojatlarini o‘rganish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruhining 2025-yil 24-sentyabrdagi 1-son bayoniga muvofiq talabalarga moddiy yordam berish maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor (T.A.Bobomuratov), Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (N.L.Asqarov), Moliya-iqtisodiyot boshqarmasi boshlig‘i (A.A.Suvanov), Bosh buxgalter (X.M.Mardanov), Yuridik bo‘lim boshlig‘i – S.M.Yusupova, Fakultet dekanlari - I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, Q.E.Shomurodov, D.T.Ashurova, A.R.Valiyev, S.S.Murtazayev, S.S.Gulyamov, E.A.Rizayev, Kasaba uyushmasi raisi – K.S.Siddikov, Yoshlar ittifoqi boshlang‘ich tashkiloti yetakchisi – J.M.Boboyev va Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bosqarmasi boshlig‘i M.A.Xasanova

Universitetda tahsil olayotgan ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan hamda ishchi guruh tomonidan o‘rganib chiqilgan bayonnomada ismi shariflari keltirilgan davlat ta’minotiga olingan talabalar ro‘yxati 1-ilovadaga muvofiq tasdiqlansin.

Ilovada ko‘rsatib o‘tilgan talabalarni to‘liq davlat ta’minotiga o‘tkazilib, ularni davlat budjeti mablag‘lari hisobidan poyafzal va kiyim bosh, oziq-ovqat mahsulotlari va darslik adabiyotlar sotib olishlari uchun pul mablag‘lari bilan ta’minlash choralari ko‘rilsin.

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: MM66758477

1.1. Bosh kampus bo‘yicha ilovada keltirilgan to‘liq davlat ta’minotidagi chin-etim talabalarning har biriga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan quyidagicha:

- oziq-ovqatga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 1 309 100 (bir million uch yuz to‘qqiz ming bir yuz) so‘m;

- gigiyena vositalariga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 35 900 (o‘ttiz besh ming to‘qqiz yuz) so‘m;

- kiyim-kechakka sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 74 500 (yetmish to‘rt ming besh yuz) so‘m;

- yo‘l chiptasiga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 90 900 (to‘qson ming to‘qqiz yuz) so‘m;

- Darsliklar bilan ta’minlash xarajatlari sentyabr oyi uchun uchun – 2 130 600 (ikki million bir yuz o‘ttiz ming olti yuz) so‘m;

1.2 Pediatriya kampus bo‘yicha ilovada keltirilgan to‘liq davlat ta’minotidagi chin-etim talabalarning har biriga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi:

- oziq-ovqatga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 1 151 200 (bir million bir yuz ellik bir ming ikki yuz) so‘m;

1.3 Stomatologiya kampus bo‘yicha ilovada keltirilgan to‘liq davlat ta’minotidagi chin-etim talabalarning har biriga davlat budjeti mablag‘lari hisobidan quyidagi:

- oziq-ovqatga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 1 150 000 (bir million bir yuz ellik ming) so‘m;

- gigiyena vositalariga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 31 500 (o‘ttiz bir ming besh yuz) so‘m;

- kiyim-kechakka sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 66 000 (oltmish olti ming) so‘m;

- yo‘l chiptasiga sentyabr-oktyabr-noyabr-dekabr oylariga – 83 000 (sakson uch ming) so‘m miqdorda pul mablag‘lari to‘lash tartibi belgilansin.

2. Davlat ta’minotiga o‘tkazilgan talabalagning har biriga ko‘rsatilgan miqdorlarda davlat budjeti mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda moddiy yordam pullari berilishi ta’minlansin.

3. Yuqorida ko‘rsatilgan barcha xarajatlar davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi inobatga olinsin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (N.L.Asqarov) zimmasiga yuklatilsin.

Rektor **Sh.A. Boymuradov**